

## RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI AFZALLIKLARI VA AHAMIYATI

*Muallif: Abduvaliyeva Risolat Dilshod qizi*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti talabasi*

*Ilmiy rahbar: G'ofurov Javohir*

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti katta o'qituvchisi*

Raqamli iqtisodiyot- bu intellektual faoliyat mahsuli hisoblanib, uzoq davrdan rivojlanayotgan murakkab tizim sifatida uning tarkibi texnik, axborot, matematik ta'minotidan iborat bo'lib real sektorlarning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatini raqamli texnologiyalarini keng qo'llashga asoslangan tizim hisoblanadi. Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyot ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarni keng tarmoqda qamarab olgan, va bu tushuncha bir qator mamlakatlarning iqtisodiy nazariyasi va amaliyotida paydo bo'ldi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi mamlakatlararo hamda, ichki davlatda ham ijtimoiy- iqtisodiy aloqalarni tobora kengayib borishiga, axborot sohasida esa inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish uchun turtki bo'la oladi.

Raqamli iqtisodiyot atamasi aytilgan davrdan 1995-yildan ancha oldin, ya'ni XX asrning o'rtalaridan shakllana boshladi. Nikolas Negroponte buyuk Amerikalik olim raqamli texnologiyalar inson hayotiga va iqtisodiyotiga juda katta ta'siri borligini tushunib yetganidan so'ng u o'zini "Being Digital" nomli ya'ni Raqamli bo'lish nomli kitobini yozdi va raqamli iqtisodiyot termini amaliyotga kiritildi. Bugungi kunda esa raqamli iqtisodiyot o'zining futuristik qarashlari bilan dunyo texnologiyalarini rivojlanish yo'nalishini shakllantirishda davom etmoqda. Bu termini ko'plab jurnalist, iqtisodchilar, siyosatchilar, tadbirkorlar qo'llab kelmoqda.

Raqamli iqtisodiyot ikki xil turli tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi: Birinchidan raqamli iqtisodiyot bu rivojlanishning yangi bosqichi

bo‘lib, u ijodiy bilim mehnat va axborot texnologiyalarining ustuvor o‘rni bilan belgilanadi.


Ikkinchida raqamli iqtisodiyot bu o‘ziga hos nazariya hisoblanib, uning o‘rganish obyekti axborotlashgan jamiyat hisoblanadi. Bugunda kunda tezlik bilan rivojlanayotgan global iqtisodiyot sharoitida raqamli iqtisodiyot o‘z rivojlanishining boshlang‘ich davrida bo‘lib, zamonamizning raqamli axbarot davriga o‘tishi bosqichma bosqich kechmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev aytganlaridek, “Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotimizning barcha sohalariga joriy qilish — vaqt talabi. Zamonaviy iqtisodiyot va boshqaruvning poydevori raqamli tizim bo‘lib qolmoqda.”

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan boorish imkoniyatini berad

Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan boorish imkoniyatini berad

“Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi”.



Raqamli iqtisodiyotning hozirgi kundagi rivojlanishi:

- **E-commerce (35%)**: Elektron savdo bozorning eng katta ulushiga ega.
- **Fintech (25%)**: Moliyaviy texnologiyalar, jumladan elektron to'lovlar va bank xizmatlari.
- **Digital Infrastructure (15%)**: Internet, bulutli texnologiyalar va texnik infratuzilma.
- **AI and Automation (15%)**: Sun'iy intellekt va avtomatlashtirish texnologiyalari.
- **Digital Education (10%)**: Raqamli ta'lim platformalari va xizmatlari.

Shuningdek raqamli iqtisodiyotni foydallari haqida gapiradigan bo'lsak. Avtomatlashtirish bu raqamli iqtisodiyotning eng yaxshi va qulay tomonlaridan biri bu zamonaviy iqtisodiyotda texnologiyalarning ajralmas bir qismi hisoblanib turli xil sohalarda, ishlab chiqarish samaradorigini oshirishga xizmat qilib kelmoqda bugungi kunda. Texnologiyalarning rivojlanishi inson hayotini yengillashtiradi va ish jarayonlarini tezlashtiradi.

Kichik bizneslar uchun ham keng qamrovdagi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Kichik korxonalariga bozor bilan ishlash xarajatlarni kamaytirish, va global miqyosda raqobatlashish imkoniyatini yaratadi. Hamda raqamli

iqtisodiyotning yana bir muhim foydali xususiyatlaridan biri u vaqtni tejaydi kamroq ish kuchini talab qiladi.

Raqamli iqtisodiyotning juda ham ko'p foydali tomonlari bor bo'lsa ham ba'zi bir salbiy tomonlari ham mavjud. Birinchi o'rinda ishsizlikning o'sishiga olib keladi. Avtomatlashtirish qanchalik qulay va vaqtni tejasa ham lekin u ishsizlikga olib keladi ya'ni keng qamrovdagi texnologiyalardan foydalaniladi va ko'plab kasblarning yo'qolishiga olib keladi. Va yana bitta muommolardan biri yangi ko'nikmalarga ehtiyoj tug'iladi. Ishchilarga yangi ko'nikmalar kerak bo'ladi, bunda esa yosh kadrlar malakasiz xodimlar ish topishga qiynalishadi.

Xulosa qilib shuni ayta olamizki, oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot ma'lumotlari bo'ladi. Zamonaviy texnologiyalar asosida barqaror iqtisodiy rivojlanish va raqobatbardosh muhitni yaratadigan kelajakning asosiy iqtisodiy modelidir. Uning ahamiyati nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy hayotning barcha sohalarida yaqqol seziladi. Shu sababli, davlat va xususiy sektorlar uchun raqamlashtirish jarayonlariga ustuvorlik berish muhimdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <sup>1</sup> Raqamli iqtisodiyot. M. Butaboyev. Toshkent, 2021
2. Bank 4.0 doimo siz bilan- hozir vas hu yerda. Brett King-Toshkent:"Ilm-ziyo-Zakovat 464 b,
3. Gulyamov, S.S. va b. (2019). Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalari. -T.: Iqtisod-Moliya. 396 b.
4. World Trade Statistical Review 2019 - World Trade Organization.
5. Kurpayanidi, K., Ilyosov, A. (2020) Problems of the use of digital technologies in industry in the context of increasing the export potential of the country// ISJI Theoretical & Applied Science. p. 113-117.
6. Abdullayev, A. M., & Kurpayanidi, K. I. (2020) Analysis of industrial enterprise management systems: essence, methodology and problems. Journal of Critical Reviews, 7 (14), 1254-1260. <https://dx.doi.org/10.17605/OSF.IO/E6JFS>